



**TALABALAR NUTQIDA IJTIMOIIY OMILLARNING TIL VARIANTLARIGA
TA'SIRI**

Eshpo'latova Ruxsora

Kattaqo'rg'on pedagogika instituti

Filologiya va tillarni o'qitish; o'zbek tili 4-bosqich talabasi

Annotatsiya; *Mazkur maqolada talaba yoshlar nutqida til variantlarining shakllanishi va rivojlanishiga ijtimoiy omillarning ta'siri sotsiolingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ta'lim muhiti, hududiy mansublik, ijtimoiy guruhlar, yosh omili hamda zamonaviy raqamli kommunikatsiya vositalarining talaba nutqidagi lisoniy farqlanishlarga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, talabalar nutqida adabiy til me'yorlari va norasmiy til birliklari o'rtasidagi munosabatlar yoritilib, ularning kommunikativ va funksional xususiyatlari aniqlanadi.*

Kalit so'zlar; *sotsiolingvistika, talaba nutqi, til variantlari, ijtimoiy omillar, nutq madaniyati*

Abstract; *This article analyzes the influence of social factors on the formation and development of language variants in students' speech from a sociolinguistic perspective. The study examines the impact of the educational environment, regional background, social groups, age factor, and modern digital communication tools on linguistic variation in students' speech. In addition, the relationship between literary language norms and informal language units in students' communication is discussed, and their communicative and functional characteristics are identified.*

Keywords; *sociolinguistics, students' speech, language variants, social factors, speech culture*

Аннотация; *В статье с социолингвистической точки зрения анализируется влияние социальных факторов на формирование и развитие языковых вариантов в речи студентов. В ходе исследования рассматривается воздействие образовательной среды, региональной принадлежности, социальных групп, возрастного фактора, а также современных средств цифровой коммуникации на языковую вариативность студенческой речи. Кроме того, освещается соотношение норм литературного языка и неофициальных языковых единиц в речевой практике студентов, выявляются их коммуникативные и функциональные особенности.*

Ключевые слова: *социолингвистика, речь студентов, языковые варианты, социальные факторы, культура речи*

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sotsiolingvistika doirasida tilning ijtimoiy tabiatini, uning turli ijtimoiy qatlamlar nutqida namoyon bo'lish shakllarini tadqiq etish



dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Talabalar nutqi esa jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va kommunikativ jarayonlarni eng faol aks ettiruvchi lisoniy muhit sifatida e’tiborni tortadi.

Talaba yoshlar nutqida til variantlarining xilma-xilligi — adabiy til, hududiy shevalar, ijtimoiy jargon va sleng birliklarining qo‘llanishi — ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanadi. Shu bois mazkur maqolada talabalar nutqida ijtimoiy omillarning til variantlariga ta’siri sotsiolingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Til variantlari tushunchasi va uning sotsiolingvistik mohiyati

Sotsiolingvistikada til variantlari deganda bir til doirasida mavjud bo‘lgan fonetik, leksik, grammatik va uslubiy farqlanishlar tushuniladi. Bu farqlanishlar jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, madaniy darajasi, kommunikativ ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq holda yuzaga keladi.

Til variantlari quyidagi asosiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

Hududiy variantlar (sheva va lahjalar);

Ijtimoiy variantlar (jargon, sleng, kasbiy nutq);

Funksional-uslubiy variantlar (ilmiy, rasmiy, og‘zaki, norasmiy nutq).

Talabalar nutqida ushbu variantlarning barchasi muayyan darajada faol qo‘llanilib, ijtimoiy omillar ta’sirida o‘zaro munosabatga kirishadi.

Talabalar nutqiga ta’sir etuvchi asosiy ijtimoiy omillar

Ta’lim muhiti va akademik omil; Talabaning ta’lim olayotgan muhiti uning nutqiy kompetensiyasini belgilovchi muhim omildir. Oliy ta’lim muassasasining akademik saviyasi, fan yo‘nalishi va ilmiy muhit talabalar nutqida adabiy til me’yorlariga rioya etish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Filologiya va gumanitar yo‘nalish talabalari nutqida adabiy til unsurlari ustun bo‘lsa, texnik va aniq fanlar yo‘nalishida kasbiy terminologiya faol qo‘llaniladi.

Hududiy mansublik omili; Talabaning kelib chiqish hududi uning nutqida hududiy til variantlarining saqlanib qolishiga sabab bo‘ladi. Norasmiy muloqot jarayonida sheva elementlari faol ishlatilsa-da, rasmiy va ilmiy nutqda adabiy tilga moslashuv kuzatiladi. Bu holat talabalar nutqida kod almashinuvi (code-switching) jarayonining mavjudligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy guruh va yosh omili; Talabalar ma’lum bir ijtimoiy guruh vakili sifatida o‘z nutqida guruhga xos til birliklaridan foydalanadi. Jargon va sleng birliklar talabalar nutqida ijtimoiy identifikatsiya vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yosh omili esa tilning dinamik rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yangi so‘z va iboralarning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Raqamli kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalari; Zamonaviy axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar talabalar nutqining yangi lisoniy ko‘rinishlarini yuzaga keltirmoqda. Qisqartmalar, xorijiy so‘zlar, grafik belgilar va emoji unsurlari yozma nutqda keng qo‘llanilib, til variantlarining kengayishiga olib kelmoqda. Bu jarayon bir tomondan tilning funksional imkoniyatlarini oshirsa, ikkinchi tomondan adabiy me’yorlarga tahdid soluvchi omil sifatida baholanadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Jamiyat o‘zgarib takomillashib borar ekan bu jarayon birinchi navbatda nutqda o‘z ifodasini topadi. Fanning ma’lum bir sohasida qilingan ixtiro-yangilik dunyo bo‘ylab tarqalar ekan o‘z nomi bilan boshqa tillar lug‘atini boyitishga sabab bo‘ladi.

Jamiyatning eng faol qatlami bo‘lgan talabalar nutqi o‘zgaruvchan bo‘lib, tilga kirib kelayotgan har qanday yangilikni avvalo ular nutqida sezish mumkin. Bunday nutqda adabiy til, so‘zlashuv tili, sheva unsurlari, xorijiy tillardan o‘zlashmalar va ijtimoiy sinfga xos variantlar ham qo‘shilib ketadi. Buning asosiy sababi albatta ijtimoiy omillardir. Til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qiluvchi sotsiolingvistika fanida bunday jarayonlar til variantlari va nutqiy xulq-atvor bilan izohlanadi.

Ijtimoiy omillardan hududiy omil yaqqol ko‘zga tashlanadi. Talabalarning dialektik shevasi ularning qayerdan kelganini ko‘rsatib beradi. Masalan poytaxt va uning atrofida yashovchi kishilar nutqida "kevotti" bo‘lsa, Samarqandning ba’zi qishloqlarida "kelyappan" tarzida aytiladi.

Bu talabalar nutqidaagi fonetik farq bo‘lsa, leksik farq ular nutqidagi so‘z qo‘llanilishida kuzatiladi.

Masalan; Vodiyliklar shevasida, xuddi (rosa) ozgina so‘zlari ko‘p ishlatilsa, Samarqand qishloq shevasida, g‘irt (rosa) so‘zi ko‘p ishlatiladi.

Bir joyga yig‘ilgan turli hudud vakillari nutqidagi sheva unsurlari ijtimoiy muhit ta’sirida neytral holga o‘tishi yoki aralash variant hosil qilishi mumkin. Shu bilan birga, adabiy til me’yorlaridan chetga chiqish holatlari nutq madaniyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois talabalar nutqida adabiy til va norasmiy variantlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhim masala hisoblanadi. Talabalar jamiyatning faol a’zolari bo‘lgani sababidan, ular adabiy tilni jamiyatga keng yoyishda yordam berishlari joizdir.

Xulosa; Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalar nutqida til variantlarining shakllanishi va faol qo‘llanilishi ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liqdir. Ta’lim muhiti, hududiy mansublik, ijtimoiy guruh, yosh omili va raqamli kommunikatsiya talabalar nutqining lisoniy qiyofasini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Ushbu omillarni ilmiy asosda o‘rganish talabalarda nutq madaniyatini shakllantirish, adabiy til me’yorlariga ongli munosabatni rivojlantirish va sotsiolingvistik kompetensiyani oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Deshereyev Yu. D. Sotsiolingvistika asoslari. – Moskva, 1977.
 2. Fishman J. Sociolinguistics. – New York, 1972.
 3. Yo‘ldoshev B. Til va jamiyat. – Toshkent, 2015.
 4. Karimov S. Nutq madaniyati va adabiy til me’yorlari. – Toshkent, 2018.
- O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2020.